

SPORT FEDERATSIYALARI – JAMOAT BIRLASHMALARI SIFATIDA**Otobolayev Dostonbek Mahmudjon o‘g‘li**

Toshkent davlat yuridik universiteti “sport huquqi” magistranti

doston.otabolaev@gmail.com +998996966917

ANNOTATSIYA

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari inson huquq va manfaatlarini himoya qilishda muhim o‘rin tutib, fuqarolarning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi, ijtimoiy, iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratish orqali jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta‘minlashga xizmat qilib kelmoqda.

Ayni vaqtda bugungi shiddatli zamon, hayotning o‘zi yoshlarimiz tarbiyasi borasida oldimizga yangi-yangi, o‘ta muhim va dolzarb vazifalar qo‘ymoqda. Shubhasizki, mazkur dolzarb vazifalarni amalga oshirishda sport tashkilotlarining o‘rni beqiyos. Shu sababli, xalqaro huquqning sub‘ekti sifatida sport tashkilotlarining tushunchasi, nazariy asoslari, tarixi va turlarini o‘rganish mavzunito‘g‘ri yo‘nalishda tadqiq etishga xizmat qiladi.

Sport tashkilotlarini xalqaro va milliy tashkilotlarga bo‘lishadi. Buning sababi, shaxsning jismoniy va ma‘naviy jihatdan rivojlanishining muhim vositalaridan biri hisoblangan sportni rivojlantirish va sport sohasida xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan xalqaro sport harakati ham xalqaro sport tashkilotlari yuzaga kelishi bilan tashkil etildi. Sport tashkilotlari muayyan bir davlatda ro‘yxatdan o‘tsada, xalqaro sport tashkilotga a‘zo hisoblanadi va uning huquqiy hujjatlariga amal qiladi.

Kalit so‘zlar. Sport, tashkilot, jamoat birlashmalari, sport huquqi, jismoniy tarbiya, sport qoidalari hamda reglamentlari.

Sport tashkilotlari sport sohasida sportchilarni tayyorlash, sport musobaqalarini o‘tkazish, mazkur sohada ta‘lim yoki boshqa faoliyat (shu qatori ilmiy tadqiqotlar bilan bog‘liq) faoliyat bilan shug‘ullanuvchi xalqaro sport harakati ishtirokchisi yuridik shaxs hisoblanadi. Mazkur tushuncha ostida ijtimoiy va tijorat tuzilmalarini o‘zida aks ettiradi. Har bir davlat qonunchiligida sport tashkilotlariga turlicha ta‘rifberilgan.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida “sport tashkiloti” tushunchasiga ta‘rif mavjud. Vazirlar Mahkamasining “Sport turlari bo‘yicha terma jamoalar to‘g‘risidagi nizomni hamda sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarorida quyidagicha belgilangan: **“Jismoniy tarbiya va sport tashkiloti** – tashkiliy va huquqiy shaklidan qat‘i nazar, faoliyatning asosiy turi sifatida jismoniy tarbiya va sport sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs”[1]. Nizomda berilgan ta‘rifda sport tashkiloti yuridik shaxsligini belgilab bergan.

Xalqaro sport tashkiloti tan olinishi uchun uning faoliyati Xalqaro sport tashkilotlari Nizomi talablariga javob berishi zarur. Bunday xalqaro huquqiy normalar umumiy xarakterga ega

bo‘lgan va sportga oid xalqaro tashkilotlarning huquqiy hujjatlari bo‘lishi mumkin[2].

Mamlakatda qabul qilingan qonunlarni ijro etuvchi va sportga oid davlat siyosati va davlat dasturlarini yurituvchi davlat boshqaruv organlarini o‘rganish juda muhim ahamiyatga ega. Sport tashkilotlari davlat yoki nodavlat bo‘lishidan qat‘iy nazar, davlat boshqaruv organlari huquqiy hujjatlarini bajarishga majburdir. Bugungi kunda yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish hamda uni qo‘llab-quvvatlashga oid zarur huquqiy baza yaratilgan. Jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirishda alohida tartibda Dasturlar qabul qilish va uni ijro etish bilan bog‘liq chora-tadbirlar muhim ahamiyatga ega. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda Prezident, Oliy majlis, Vazirlar Mahkamasi va jismoniy tarbiya hamda sportda mutasaddi vazirliklar va idoralar tomonidan ko‘pgina tashkiliy- huquqiy asoslar ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Ayni paytda pirovard maqsadimizga aylangan huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatida har qanday masala faqat va faqat huquqiy baza asosida amalga oshirilishi lozim.

Davlat boshqaruv organlari, ya‘ni O‘zbekiston Respublikasida ijro etuvchi hokimiyati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi rahbarligi ostida amalga oshiriladi. Ijro hokimiyati organlari tizimiga oliy organlardan tashqari, vazirliklar, davlat qo‘mitalari va ularning tuzilmalari, respublika miqyosidagi korxonalar, muassasa, tashkilot, konsern, korporatsiya, assotsiatsiya, kompaniya hamda boshqa birlashmalar hamda hokimlar va hokimiyatlar tomonidan ham amalga oshiriladi. Ular o‘z huquqiy maqomiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasida umumiy, sohaviy va tarmoqlararo oliy va markaziy davlat boshqaruvini amalga oshiradilar[3].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti respublika oliy hokimiyat hamda boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini ta‘minlaydi; vazirliklar, davlat qo‘mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi. Boshqa huquqiy hujjatlardan farqi Prezident Farmoni davlat boshlig‘iga tegishli vakolat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-fevraldagi “Turizm, madaniy meros va sport sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–75-son farmoni hamda “Sportni rivojlantirish vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ–136-son qaroriga muvofiq Sportni rivojlantirish vazirligi tashkil etildi. Sportni rivojlantirish vazirligi markaziy tuzilmasi vazir birinchi o‘rinbosar va vazir o‘rinbosarlaridan iborat bo‘lib hisoblanadi.

Vazirlik faoliyatining asosiy yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

Jismoniy tarbiya va sport sohasida aholi keng qatlamlarini sport bilan shug‘ullanishga va sog‘lom turmush tarzini yuritishga jalb etish, jismonan sog‘lom avlodni tarbiyalash, sport industriyasi va infratuzilmasini rivojlantirish, mamlakatimizning xalqaro sport maydonlaridagi yutuqlarini targ‘ib qilish va uning keng e‘tirof etilishiga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

Mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jismoniy

tarbiya va sport jamiyatlari, ta'lim muassasalari, jamoat tashkilotlari bilan birgalikda aholi, ayniqsa, yoshlar, xotin-qizlar, keksalar, qishloq aholisi o'rtasida sport hamda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishni ommalashtirish borasida keng ko'lamli ishlarni tashkillashtirish, shaharlar va tumanlarda ommaviy sport tadbirlari, milliy sport turlari bo'yicha o'yinlari va musobaqalarini muntazam o'tkazib borish;

Bolalar, ayniqsa, qizlarni sport bilan muntazam shug'ullanishga keng jalb etgan holda, bolalar sportini har tomonlama rivojlantirish, bolalar sport ta'limi sifatini oshirish, barcha hududlarda, jumladan, qishloq va olis tumanlarda bolalar sport ob'ektlari tarmog'ini yanada kengaytirish, uch bosqichli "Umid nihollari", "Barkamol avlod" va "Universiada" musobaqalari o'tkazilishini tashkil qilish, buning asosida bolalar sog'lig'ini mustahkamlash va ularning jismonan barkamol rivojlanishini ta'minlash;

MOQ, sport federatsiyalari va assotsiatsiyalar birgalikda iste'dodli shuningdek istiqbolli sportchilarni tanlash, tayyorlash va mahoratini oshirishning uzluksiz tizimini takomillashtirish;

Mamlakatimizda professional sportni rivojlantirish, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda, sport tayyorgarligi jarayoniga zamonaviy texnologiyalar joriy etilishi, sport turlari bo'yicha xalqaro va mintaqaviy musobaqalar tashkil etish va hakazo.

Sport federatsiyalari — jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi xalqaro (jahon va mintaqaviy) hamda milliy nodavlat tashkilotlardir. Birinchi xalqaro federatsiya 1881-yilda gimnastika bo'yicha tuzilgan sport federatsiyasidir. Bugungi kunda eng yirik sport federatsiyasi bu - futbol bo'yicha xalqaro federatsiya (FIFA) hisoblanadi. O'zbekistonda sportning olimpiada turlari, olimpiada dasturiga kirmaydigan turlari va milliy turlari bo'yicha jami 63 dan ortiq federatsiya faoliyat olib boradi.

Xalqaro sport federatsiyalari – bu aniq bir sport turi (turlari) bo'yicha milliy federatsiyalarning birlashma, ittifoqlarini tashkil etuvchi xalqaro sport tashkilotlaridir. Milliy sport federatsiyasi mamlakatda sport turini yoki sport turlarini rivojlantirish va ommalashtirishni amalga oshiradi hamda respublika va xalqaro miqyosdagi barcha tadbirlar va musobaqalarda sportchilar hamda boshqa mutaxassislar nomidan ish yuritadi[4].

Xalqaro sport federatsiyalari nafaqat yuqori natijalar sportini rivojlantirishni ko'zlab, balki ommaviy sportni taraqqiy ettirish uchun ham tuziladi va faoliyat yuritadi. Shunga muvofiq xalqaro sport federatsiyalarining nizomlarida tegishli normalar ham belgilab qo'yiladi. Masalan, Xalqaro tennis federatsiyasi nizomining federatsiya vazifalari belgilangan qismida – turli mamlakatlarda tennis rivojiga zamin yaratish vazifasi qayd etilgan. Xalqaro sport tashkilotlarining alohida guruhini professional sport sohasidagi xalqaro tashkilotlar tashkil etadi. Bunday tashkilotlarga Milliy basketbol assotsiatsiyasi (NBA), Milliy xokkey ligasi (NHL), Bosh beysbol ligasi (GBL) hamda boshqalar misol bo'la oladi. Ularni bir qit'aning bir necha mamlakat sport klublari (ligalari, ittifoqlari, va h.k.z.)ni birlashtirgan professional sportning hududiy xalqaro tashkilotlari sifatida e'tirof etish mumkin.

Shu o'rinda alohida ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligining qarori bilan tasdiqlangan Sport federatsiyalari (uyushmalari) reestrini yuritish va undan ma'lumotlar taqdim etish tartibi to'g'risida nizom reyestrni shakllantirish va tizimli yuritish maxsus vakolatli davlat organi rahbarining buyrug'i bilan belgilangan mas'ul xodim tomonidan sport federatsiyalari (uyushmalari) taqdim etadigan hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Sport federatsiyalari (uyushmalari) davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin o'n besh kun ichida sport federatsiyasini (uyushmasini) Reyestrga kiritish haqida maxsus vakolatli davlat organiga ariza bilan murojaat qiladi[5].

Sport federatsiyalari o'z sporti turi bo'yicha maxsus trener kadrlarni hamda boshqa mutaxassislarni tayyorlash, tanlash, joyiga qo'yish va malakasini oshirishda qatnashadi hamda federatsiyaning ijroiya-rahbariy idoralarining shtatiga tanlov asosida kiritish uchun nomzodlarni tavsiya etadi va trenerlarni xorijda malaka oshirish uchun yuborishi yoki xorijlik mutaxassislarni O'zbekistondagi federatsiya sport turi bo'yicha ishga taklif qilishi mumkin[6]. Xulosa qilib aytganda, jismoniy madaniyat insonning umumiy madaniyati, uning sog'lom turmush tarzidan biri bo'lib, ko'p jihatdan insonning o'qish, ishlab chiqarish, kundalik hayotda, aloqada bo'lgan xatti-harakatlarini belgilaydi, ijtimoiy-iqtisodiy, tarbiyaviy va sog'lomlashtirish muammolarini hal qilishga yordam beradi. Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga g'amxo'rlik qilish davlatning ijtimoiy siyosatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, odamlarning qobiliyatlarini aniqlash, ularning qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirish, inson omilini faollashtirish uchun keng imkoniyatlar ochadigan insonparvarlik g'oyalari, qadriyatlarini va me'yorlarini hayotga tatbiq etishni ta'minlaydi.

Shu bilan birga, o'tgan vaqt mobaynida jismoniy tarbiya va sport sohasida ko'plab qonunosti hujjatlari qabul qilinib, ularning aksari mamlakatimizda bolalar va xotin-qizlar sportini rivojlantirish, ommaviy sportni targ'ib etish, alohida sport turlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, sportchilarni munosib rag'batlantirishga bag'ishlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10 ta farmon va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 27 ta qarorlari, vazirlik va davlat qo'mitalarining qator qonunosti hujjatlari shular jumlasidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida PF-5887-son farmoni, PF-5887-СОН 04.12.2019. O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida (lex.uz).
2. O'zbekiston Respublikasi "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi qonuni, 223-XII-СОН 15.02.1991. O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida (lex.uz).
3. L.A. Djalilova, jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi, darslik, 223-b. fayl_122_20210324.pdf (tdpushf.uz)

4. L.A. Djalilova, jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi, darslik, 60-61-b. fayl_122_20210324.pdf (tdpushf.uz)
5. Osobennosti gosudarstvennoy registratsii obshchestvennykh sportivnykh obedineniy (chast 3) (center-bereg.ru) Osobennosti gosudarstvennoy registratsii obshchestvennykh sportivnykh obedineniy (chast 3) — Center Bereg — yuridicheskiy portal (center-bereg.ru)
6. Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma, SamDu 2020.